Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317209

3. Xamrayeva S.N. va Samiyeva G.T. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik/ Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2022. –460 bet.

TEMUR TUZUKLARIDA – DEMOKRATIYA VA INSON HUQUQLARI G‘OYALARI

Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich
“Kokand University” Andijon filialii
«Ijtimoiy-gumanitar va pedagogika fanlari» kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
ataxanov1966@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi: Yurtimizda inson huquqlari masalasi azaldan eng muqaddas qadriyat hisoblanib, muqaddas dinimizning shariat odob-axloq qoidalari, ajdodlarimizning qadriyatlari, milliy urf-odat va an'analarimiz hamda buyuk mutafakkirlarning ta'limotlari bilan birga yo‘g‘rilgan.

Islomiy fikh manbalarning ilk namunalaridayoq inson huquqlariga katta e'tibor berilganligi, jamiyatda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilganligini ko‘rish mumkin. Qadimiy yozma manbalar, ajdodlarimizning ulkan meroslari, mukaddas diniy ta'limotlar hisoblangan Qur'oni karim, xadisi-shariflar va xatto Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda ilgari surilgan g‘oyalar ham inson huquqlari va manfaatlari uchun katta bir ta'limot ekanligi hech kimga sir emas. Xullas, bizning kundalik munosabatlarimizda aks etayotgan inson huquqlari bugun paydo bo‘lib, biz uni boshqalardan o‘rganayotganimiz yo‘q. Inshaolloh, mazkur masala o‘zining qadimiy ildizlariga, mustahkam poydevoriga ega.

Biz quyida fikr yuritib, muhokama va mushohada etmoqchi bo‘lgan mavzu aynan inson huquqlari va demokratik tamoyillar masalasiga tegishli bo‘lib, unda ajdodlarimiz ijtimoiy turmush tarzida qonunlarga amal qilishining qiyosiy tahlili berilgan-ki, uning asnosida shonli tariximiz o‘g‘itlari bugungi kunda o‘z asliyatini topayotganligini guvohi bo‘lamiz.

Mavzuga oid mavjud muammolar: Temuriylar davlatining asoschisi Temurbek Ibn Tarag‘ay, èshligidanoq zo‘ravonlik va zo‘ravonlarga kurash olib borib, jamiyatda adolat me'yorlariga muvofiq ish yuritish tuyg‘ulari bilan birga o‘sdi va kamol topdi. U irodasi va e'tiqodi mustahkam komil inson edi. Ta'kidlab o‘tmoq lozimki, Sohibqiron butun umrini davlatchilik ishlariga bag‘ishlab, Movarounnahrni chingiziylar asoratidan butkul xalos etib, markazlashgan qudratli davlat barpo etishga erishdi. Shu bilan birga davlatni boshqarish, yurt tinchligi va xalq farovonligi, shaharsozlik, qurilish, arxitektura, san'at, adabiyot hamda ilm – ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishdi. Markaziy Osiyodagi ijtimoiy – siyosiy va buyuk davlatchilik sièsatining yangi bosqichiga asos solgan Amir Temur o‘zining barcha amaliy faoliyatini shariat qonunlariga va tuzuklariga tayanib yuritgan. U: “Men o‘z saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk asosida

Published: 28.03.2024
Cite this article: Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich (2024). Temur tuzuklarida – demokratiya va inson huquqlari g‘oyalari. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317209
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

bajardim. Shariat qonunlariga itoat qilish, urf – odatga e'tibor berish men uchun katta ahamiyatga ega edi. Mening mamlakatimda turli sohalarda qonunlarga qat'iy amal qilinadigan bo‘lsa, men o‘zimni o‘sha yerda hozir turganday sezardim” – deb ta'kidlagan. Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temurning hurmat va e'tiborga molik meroslaridan biri uning siyosiy va huquqiy qarashlari majmui bo‘lgan “Temur tuzuklari”dir. Dunyoning turli tillariga tarjima qilingan ushbu asar, davlatni idora qilish usullari, qo‘shinni tashkil etish qoidalari, urushlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan turli harbiy uslublar kabi qator siyosiy, huquqiy, harbiy, axloqiy g‘oyalar va me'yorlarni o‘z ichiga olgan. Tuzuklarning markazida inson, uning qadr-qimmati, mamlakat, yurt osoyishtaligi va uning ravnaqi turgan.

Muammoni hal qilish usullari: Ma'lumki Amir Temur o‘z davrida qudratli markazlashgan davlatni barpo etdi va uning poydevorlarini adolatda deb bildi. Temur tomonidan bizgacha yetib kelgan mashhur asari bo‘lmish Temur tuzuklari davlat boshqaruvining mulkka egalik qilish, nochorlarga muruvvat ko‘rsatish, inson huquqlari, demokratiya, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat kabi muhim jihatlarini qamrab olgan edi. Shu ma'noda inson huquqlari masalalari buyuk sohibqiron g‘oyalarida asosiy o‘rinni egallagan.

“Temur tuzuklari”da keltirilgan qonun-qoida hamda nasihat va tavsiyalarni tahlil qilib, uni dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilot hisoblangan BMTning eng muhim hujjati hisoblangan “Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa hujjatlarda keltirilgan huquqiy normalar bilan solishtirib, taqqoslashga arzigulik muhim manbadir. Temur bundan 650 yil oldin, erkinlik, ozodlik, demokratiya, inson huquqlari kabi insoniylik tamoyillarga o‘zining tuzuklari tufayli erishdi. Chunki mazkur asarda ko‘rsatib o‘tilgan tuzuklar, ya'ni bugungi kun zamonaviy tili bilan aytganda muayyan huquqiy normalar, inson, uning qadr-qimmati, sha'ni, erkinligi, obro‘-e'tibori oliy qadriyat sifatida himoya qilingan.

Zero, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek,: “Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai–xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir” [1]. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasida milliy davlatchilik an'analari o‘tmishga borib taqaladi va o‘sha zamonning eng maqbul qadriyatlari kelajak uchun dasturulamal bo‘lib hisoblanadi. Shu ma'noda Temur tuzuklari, unda zikr etilgan tartib-qoidalar, tavsiyalar va maslahatlar hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar: Tuzuklarni o‘qir ekanmiz quyidagi satrlarga duch kelamiz: “Har vaqt kengashchilar yig‘ilib, majlis ochilar ekan, yaxshi-yomondan, foyda-ziyondan, oldimizdagi ishlarni qilish-qilmaslikdan so‘z ochib, ulardan fikr so‘rar edim. Bularning so‘zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mulohaza qilib, foyda-ziyonlarini ko‘ngilga keltirardim” [2]. Binobarin, aynan shunga o‘xshash huquqiy normani Konstitutsiyamizning 36-moddasida ko‘rishimiz mumkin, ya'ni ushbu moddada: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish

huquqiga ega... ”. Yoki 33-moddasiga ko‘ra: «Har kim fikrlash, so‘z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega» [3] – deb ko‘rsatilgan. Tuzuklarda esa Sohibqiron: “Har kimdan so‘z olib kengash so‘rar edim”, “Saltanat ishlarida har kimning so‘zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni ko‘ngil xazinasida saqlab, vaqtida ishlatsin” [4] – deb fikr bildiradi. Demak, ma'lum bo‘ladiki, Temur qattiqqo‘llik bilan birga boshqalarni ham eshitgan, ularning ham fikrlarini e'tiborga olgan. Eng muhimi qonunga amal qilingan, har bir fuqaroning so‘zlarini tinglagan va ularni e'tibordan chetda qoldirmagan.

Tarixiy manbalardan shu narsalar ma'lumki, Temur biron bir masalani hal etishda albatta shu sohaning taniqli va tajribali bilimdonlari, olimlari bilan bamaslahat ish olib borgan. Taniqli olim I. Mo‘minov o‘zining —”Amir Temurning O‘rta Osiè tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli risolasida Temurning hijriy 806 yilda chaqirilgan olim – fuzalolar kengashida quyidagicha nutq so‘zlaganini keltiradi: “fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga èrdam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishga menga o‘z maslahatlaringiz bilan ko‘maklashishingiz lozim. Agar oldin bizning diqqat – e'tiborimizda o‘zga mamlakatlarni ishg‘ol qilish uchun bo‘lgan harbiy yurishlar turgan bo‘lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o‘rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir” [5].

Shuningdek, Temur o‘z tuzuklarida: «Odam Atodan boshlab Hotam ulanbiyogacha, ulardan hozirgi damgacha o‘tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so‘rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo‘l-yo‘riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma'qul sifatlaridan na'muna olib, unga amal qildim» degan qoidani vasiyat qiladi. Vaholanki, konstitutsiyamizning 60-moddasida ham shu kabi quyidagi jumlalarni uchratish mumkin: «Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar».[2]

Temur davlatni boshqarishda mazkur qonun – qoidalarni barchaga barobar ravishda qo‘llagan. Tartibni buzgan va o‘z vazifasini bajarmagan kishilarga qattiqqo‘llik bilan munosabatda bo‘lgan. Xususan¸ o‘z farzandlariga, nabiralariga va qarindosh-urug‘lariga taalluqli bo‘lgan taqdirda ham ularning barchasi tegishli jazoni olganlar. Bu o‘rinda erkinlik va adolatlilik o‘sha davrning o‘ziga xos xalqchil tamoyillari sifatida asosiy mezon bo‘lib xizmat qilgan. Endi ushbu tuzukni zamonaviy qonunlarimizda aks etishiga e'tibor bering: Chunonchi, konstitutsiyaning 15, 16, 19-moddalarida qonun ustuvorligi haqida gapirilib, “...O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi,

millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar” degan konstitutsiyaviy huquq belgilab qo‘yilgan [3].

Eng muhimi Temur davlat boshqarishda miskinlar, faqirlar, kambag‘allar, nochor va yolg‘iz kimsalarga misli ko‘rilmagan iltifot va savob ishlarni amalga oshirdi. Tuzuklarda yozilishicha: “Darvish, faqir va miskinlarni o‘zimga yaqin tutdim, ularning ko‘ngillarini og‘ritmadim va biron talablarini rad etmadim. Buzuqi va og‘zi shaloq g‘iybatchi odamlarni majlisimga yo‘latmadim, so‘zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuhmatu g‘iybat qilsalar, quloq solmadim” [4]. Mazkur tuzuk bizga konstitutsiyadagi 20-va 43-moddalarni aks ettiradi. Unda aytilishicha: “insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq v erkinliklarinidaxlsizdir”, “Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi” [3]

Xulosa sifatida alohida ta'kidlab o‘tmoq joyizki, “Temur tuzuklari” va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyaviy qonunlar majmui o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra hamohangdir. Ularning biri ikinchisini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi. Tuzuklar milliy davlatchilik asoslarini barpo etish, huquqiy-fuqarolik demokratik jamiyatni tuzishda va unga erishishda katta ahamiyatga ega. Agarda, Konstitutsiyamizni inson huquq va erkinliklarining asosiy kafolati, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz, inson hayoti va sha'nini kafolatlovchi asosiy normativ-huquqiy hujjat deb hisoblasak, Tuzuklarni esa inson huquqlarini himoya qilish va ularni amalga oshirish yo‘llarini, mezonlarini hayotiy tajribada ko‘rsatib beruvchi, tarix sinovlaridan o‘tgan buyuk manba, ta'limot sifatida anglamog‘imiz lozimi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T, 1993, 74-b.

2 Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. t.f.d, prof. B.Ahmedov tahriri ostida. T:, 1991. B. 15:

3. https://constitution.uz/uz/clause/index

4. Temur tuzuklari. Toshkent. 1991. B. 16, 19, 55.

5. I.Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiè tarixida tutgan o‘rni va roli. Toshkent. 1993. B. 22-23

КОРХОНАЛАРНИ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Тохиржонов Асадбек Санжарбек ўғли
Андижон машинасозлик институти,
4 курс, Иқтисодиёт йўналиши талабаси
(Илмий раҳбар. Иқтисодиёт кафедраси
катта ўқитувчиси **Г.А.Саттикулова)**